

Chet Tillarini O'rganishning Kognitiv Va Ijtimoiy-Iqtisodiy Foydalari: Multidissiplinar Tahlil

*Radjabova Dildora Karimberdievna, Bekdurdiyeva Feruza
Rashid qizi*

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarini o'rganishning kognitiv va ijtimoiy-iqtisodiy foydalari, insonning intellektual salohiyati va psixologiya, neyrobiologiya, ta'limshunoslik, iqtisod va sotsiologiya fanlarining so'nggi tadqiqotlariga asoslanib, ikki va ko'p tillilikning inson miyasi, shaxsiy rivojlanish va jamiyatdagi iqtisodiy samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Kognitiv jihatdan chet tillarini o'rganish ijro etuvchi funksiyalarni (executive functions) kuchaytiradi: diqqatni boshqarish, vazifalar o'rtasida tez o'tish (task switching), ishchi xotira, muammoni hal qilish qobiliyati va kreativlikni oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'p tilli shaxslar monolingvallarga nisbatan yaxshiroq konsentratsiya qiladi, chalg'ituvchi ma'lumotlarni filtrlashda ustunlik qiladi va yoshga bog'liq kognitiv pasayishni (shu jumladan demans va Altsgeymer kasalligini) 4–5 yilga kechiktirishi mumkin. Bu afzalliklar bolalikdan boshlab kattalar va qariyalargacha bo'lgan barcha yosh guruhlarida kuzatiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan esa ko'p tillilik global mehnat bozorida muhim raqobatbardoshlik omiliga aylanmoqda. Ko'p tilli xodimlar yuqori maosh (o'rtacha 2–7 ming dollar yoki undan ko'proq qo'shimcha daromad), ko'proq eksport imkoniyatlari va xalqaro hamkorlikda ustunlikka ega bo'ladi. Kompaniyalar uchun ko'p tilli kadrlar yangi bozorlarga kirishni osonlashtiradi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi va umumiy iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi. Shuningdek, chet tillarini bilish ijtimoiy integratsiya, madaniy empatiya va global fuqarolikni kuchaytiradi.

Tadqiqot davomida ko'p tillilikning (multilingvizm) miyadagi neyronlararo bog'lanishlarni mustahkamlashi, kognitiv funksiyalarni yaxshilashi va keksayish jarayonida miya faoliyatini himoya qilishi (kognitiv rezerv) kabi kashfiyotlar ilmiy asoslab beriladi. Shuningdek, xorijiy tillarni bilishning madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish, shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligi va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashdagi strategik ahamiyati yoritiladi. Maqola yakunida til o'rganishning nafaqat muloqot vositasi, balki shaxsiy va professional kapitalni oshiruvchi asosiy omil ekanligi haqida xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: ko'p tillilik, neyroplastiklik, bilingvizm, kognitiv rezerv, ijodiy fikrlash, global integratsiya, mehnat bozori, intellektual salomatlik, madaniyatlararo muloqot.

Kirish

XXI asr – axborot oqimining shiddatli almashinuvi, texnologik inqilob va xalqaro integratsiyalashuv davridir. Bunday sharoitda chet tillarini o'rganish shunchaki akademik bilim yoki qo'shimcha mahorat darajasidan ko'tarilib, zamonaviy insonning hayotiy ehtiyojiga va strategik kapitaliga aylandi. Globallashuv jarayonlari nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarni, balki inson kognitiv imkoniyatlarini yangicha talqin qilishni ham taqozo etmoqda [1]. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganish faqatgina muloqot o'rnatish vositasi emas, balki miya faoliyatini optimallashtirish, neyronlararo aloqalarni mustahkamlash va shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi



muhim omil sifatida qaralmoqda.

Soʻnggi oʻn yilliklarda bilingvizm (ikki tillilik) va multilingvizm (koʻp tillilik) tushunchalari psixolinguistika, neyrologiya va sotsiologiya fanlarining kesishgan nuqtasida keng tadqiq etilmoqda. Ellen Bialystok, Noam Chomskiy va Erik Lenneberg kabi olimlarning izlanishlari til oʻrganishning miya neyroplastikligiga taʼsirini isbotlab berdi [2]. Biroq, zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida til bilishning sof iqtisodiy samaradorligi va uning keksayish bilan bogʻliq neurodegenerativ kasalliklarning oldini olishdagi roli hali ham chuqur multidissiplinar tahlilga muhtoj.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi chet tillarini oʻrganishning inson organizmi va ijtimoiy hayoti uchun ahamiyatini kompleks ravishda yoritib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- til oʻrganish jarayonining kognitiv funksiyalar (xotira, diqqat, mantiqiy fikrlash) rivojiga taʼsirini neyrofiziologik jihatdan asoslash;
- koʻp tillilikning neyroplastiklik va kognitiv rezerv hosil qilishdagi oʻrnini tibbiy nuqtai nazardan tahlil qilish;
- xorijiy tillarni bilishning zamonaviy mehnat bozoridagi iqtisodiy qiymatini va martaba oʻsishidagi ahamiyatini baholash;
- til oʻrganishning madaniyatlararo muloqot va tolerantlikni shakllantirishdagi rolini ijtimoiy jihatdan yoritish [3], [4], [5].

Chet tilini oʻrganish jarayoni inson miyasi uchun eng murakkab kognitiv stimulyatorlardan biri boʻlib, u miyaning ham funksional, ham strukturaviy oʻzgarishiga olib keladi. Zamonaviy neyrolingvistika ushbu jarayonni neyroplastiklik tushunchasi bilan bogʻlaydi.

Miya tuzilishidagi oʻzgarishlar: MRI tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, yangi tilni faol oʻrganayotgan shaxslarda miyaning gippokamp (xotira uchun masʼul) va miya poʻstlogʻining (tilni qayta ishlash markazlari) muayyan qismlari hajmi jismoniy jihatdan kattalashadi [6]. Ayniqsa, chap yarim sharning parietal qobigʻida kulrang modda zichligi ortadi, bu esa neyronlararo aloqalarning koʻpayganidan dalolat beradi.

Ijroiya nazorati va diqqat: Bilingv (ikki tilli) insonlar doimiy ravishda "til almashinuvi" holatida boʻladilar. Bir tilda gapirayotganda miya ikkinchi tilni toʻxtatib turishi kerak. Bu jarayon miyaning prefrontal korteks qismini – yaʼni "boshqaruv pulti"ni doimiy mashq qildiradi. Natijada, til oʻrganuvchilarda selektiv diqqat (shovqin ichidan kerakli maʼlumotni ajratish) va kognitiv egiluvchanlik (bir vazifadan ikkinchisiga tez oʻtish) qobiliyati monolingvlarga qaraganda 20-30% yuqori boʻladi [7].

Yangi grammatik qoidalarni tushunish va ularni tizimlashtirish miyaning tahliliy markazlarini ishga soladi. Bu esa nafaqat til oʻrganishda, balki matematika va muhandislik kabi aniq fanlarda ham muammolarni yechish qobiliyatini charxlaydi [8], [9].

Metodologiya

Soʻnggi oʻn yilliklarda oʻtkazilgan tibbiy tadqiqotlar chet tilini bilishning keksayish jarayoniga koʻrsatadigan hayratlanarli taʼsirini ochib berdi. Bu hodisa ilmiy adabiyotlarda "Kognitiv rezerv" deb ataladi.

Demensiya va Altsgeymer profilaktikasi: Dunyoning yetakchi nevrologlari (jumladan, Ellen Bialystok) tomonidan oʻtkazilgan tadqiqotlar shuni isbotladiki, kamida ikkita tilni biladigan bemorlarda Altsgeymer kasalligining dastlabki simptomlari bir tilli odamlarga qaraganda oʻrtacha 4,5-5 yilga kechroq namoyon boʻladi. Muhimi shundaki, til bilish kasallikning biologik paydo boʻlishini toʻxtatmasa-da, miyaga uning salbiy oqibatlarini uzoq vaqt kompensatsiya qilish imkonini beradi. Bunda miya bir tilni biladigan odamning miyasida koʻproq ishlaydi.

Koʻp tillilik miyaning kognitiv zaxirasini oshiradi – yaʼni miya strukturalarida patologik oʻzgarishlar mavjud boʻlsa ham, normal kognitiv faoliyatni uzoqroq saqlash imkonini beradi. Bu zaxira nafaqat kulrang modda hajmini, balki oq modda yaxlitligini saqlash orqali ham shakllanadi.

Keksayish jarayonida miyadagi neyronlararo signallarni uzatuvchi oq modda tolalari yemirilishi kuzatiladi. Bu jarayon asosan miyelin qobigʻining parchalanishi, aksonal degeneratsiya va tolalar oʻrtasidagi bogʻlanishlarning zaiflashishi bilan bogʻliq boʻlib, natijada signallar uzatilish tezligi pasayadi, kognitiv moslashuvchanlik, tezkor fikrlash va ijro etuvchi funksiyalar susayadi.

Natija va Tahlil



Biroq, chet tilini o'rganish va undan muntazam faol foydalanish ushbu tolalarning strukturaviy yaxlitligini sezilarli darajada saqlab qolishga yordam beradi. Diffusion Tensor Imaging (DTI) texnikasi yordamida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, umrbod ko'p tilli shaxslarda oq modda yaxlitligi yuqoriroq bo'ladi. Bu holat asosan Fractional anisotropy (FA) ko'rsatkichi orqali baholanadi. Yuqori FA qiymati tolalarning yaxshi tashkil etilganligi, miyelin qobig'ining saqlanganligi va signallar uzatilishining samaradorligini bildiradi.

Til o'rganish va faol foydalanish (ayniqsa, ikki til o'rtasidagi doimiy kod almashtirish – code-switching va til tanlash jarayoni) miyaning turli hududlari o'rtasidagi bog'lanishlarni mustahkamlaydi [10]. Bu mexanizm orqali oq modda tolalari muntazam "mashq" qilinadi va neyropastik o'zgarishlar sodir bo'ladi. Natijada, keksaygan chog'da ham aqliy ravshanlik, tezkor fikrlash, diqqatni boshqarish va muammoni hal qilish qobiliyatlari yaxshiroq saqlanadi. Ushbu mexanizm ko'p tillilikning kognitiv zaxira hosil qilishdagi muhim omillaridan biri hisoblanadi. Meta-tahlillar shuni tasdiqlaydiki, umrbod bilingual yoki multilingual shaxslarda demans va Altsgeymer kasalligi simptomlarining boshlanishi o'rtacha 3,5–5 yilga kechiktiriladi.

Til – bu shunchaki so'zlar yig'indisi emas, balki muayyan xalqning dunyoqarashi va qadriyatlarini o'rganish tizimidir [11].

Dunyoqarashning kengayishi: Sapir-Uorf gipotezasiga ko'ra, inson so'zlashadigan til uning dunyoni idrok etish usuliga ta'sir qiladi. Masalan, boshqa tilni o'rganish orqali inson o'z ona tilida mavjud bo'lmagan yangi tushunchalar va hissiyotlar bilan tanishadi. Bu esa shaxsda tolerantlik (bag'rikenglik) va o'zga madaniyatlarga nisbatan hurmatni shakllantiradi. Til bilgan odam nafaqat o'z xalqining ma'daniyatini balki o'rganayotgan tilining ma'daniyatini bir paytda taqqoslash imkoniga ham ega bo'ladi [12]. Insonning dunyoqarashi kengaygan sari uning aqliy salohiyati ham rivojlanib boradi.

Empatiya va muloqot: Ikki tilli insonlar muloqot jarayonida suhbatdoshining holati va nuqtai nazarini yaxshiroq tushunishga moyil bo'ladilar. Bu ijtimoiy intellektning (EQ) yuksalishiga yordam beradi.

Shaxsiy ishonch: Yangi tilni o'zlashtirish bosqichma-bosqich erishiladigan murakkab jarayon bo'lgani uchun, u insonda o'z kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Bu muvaffaqiyat hissi hayotning boshqa jabhalarida ham yuqori natijalarga erishish uchun psixologik poydevor bo'ladi [13], [14].

Global iqtisodiyot sharoitida chet tili – bu insonning o'ziga kiritgan eng foydali sarmoyasidir. Chet tilini o'rgangan inson-kelajagi sari muhim bir qadamni qo'ygan hisoblanadi.

Mehnat bozoridagi ustunlik: Transmilliy kompaniyalar va xalqaro tashkilotlar uchun til biladigan kadrlar strategik ahamiyatga ega. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, kamida bitta chet tilini (ayniqsa ingliz, xitoy, nemis yoki frantsuz tillari) mukammal biladigan mutaxassislarining ish haqi o'rtacha 15% dan 25% gacha yuqoriroq bo'ladi. Chet tilini biladigan odam hamisha til bilmaydigan odamdan anchagina ustun turadi [15].

Global axborotga kirish: Hozirgi kunda internetdagi ilmiy va texnik ma'lumotlarning 80% dan ortig'i ingliz tilida. Chet tilini bilish – bu eng so'nggi texnologik yangiliklar, biznes strategiyalar va ilmiy kashfiyotlarni asl nusxada o'qish imkoniyati demakdir. Bu mutaxassisga o'z sohasida axborot ustunligini beradi. Va shuni aytish mumkinki, har bitta ma'lumot o'z tilida mutolaa qilinsa kitobxon ma'lumotlarni detaligacha tushunib yetadi.

Masofaviy ish va xalqaro karyera: Til - to'siqlarining yo'qligi insonga o'z mamlakati hududi bilan cheklanib qolmasdan, global mehnat bozorida ishtirok etish imkonini beradi. Bu esa nafaqat daromadni oshirish, balki dunyoning eng ilg'or tajribalarini o'zlashtirishga yo'l ochadi. Har bir linguist uyida o'tirgan holatda ham ishlay olish qobiliyati hamda masofaviy tarzda karyerasini o'stirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Xulosa: Ushbu maqolada chet tillarini o'rganishning inson hayoti va jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyati neyrobiologik, psixologik hamda iqtisodiy prizmalar orqali atroflicha tahlil qilindi. O'tkazilgan multidissiplinar tadqiqotlar natijasida quyidagi fundamental xulosalarga kelindi:

Birinchi, chet tili bilan shug'ullanish miya neyropastikligini ta'minlovchi eng samarali mexanizmlardan biri ekanligi isbotlandi. Yangi lingvistik tizimni o'zlashtirish miyaning strukturaviy yaxlitligini mustahkamlaydi, xususan, kulrang modda zichligini oshiradi va ijroiya funksiyalarining



Kielce 2026

samaradorligini ta'minlaydi. Bu esa insonning nafaqat til o'rganishda, balki boshqa intellektual sohalarda ham yuqori tahliliy qobiliyat ko'rsatishiga zamin yaratadi.

Ikkinchi tomondan, til bilishning tibbiy-profilaktik ahamiyati beqiyosdir. "Kognitiv rezerv" nazariyasiga tayangan holda aytish mumkinki, muntazam ravishda chet tillaridan foydalanish keksayish jarayonida miya funksiyalarining yemirilishini sezilarli darajada sekinlashtiradi. Altsgeymer va boshqa neyrodegenerativ kasalliklarning o'rtacha 4-5 yilga kechikishi bilingvizmning inson salomatligi uchun naqadar muhim "strategik sarmoya" ekanligidan dalolat beradi.

Uchinchidan, sotsiolingvistik nuqtai nazardan, xorijiy tillarni o'rganish shaxsning madaniyatlararo kompetensiyasini shakllantiradi. Bu jarayon insonni o'zga xalqlarning qadriyatlarini tushunishga, bag'rikenglikka va global ijtimoiy muhitda moslashuvchan bo'lishga o'rgatadi. Til to'siqlarining bartaraf etilishi insonning ijtimoiy kapitalini oshirib, uning dunyoqarashini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi.

To'rtinchidan, iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi raqamli iqtisodiyot davrida chet tili shaxsiy daromad va professional martaba o'sishining asosiy drayveriga aylangan. Ko'p tillilik mutaxassisga global mehnat bozoriga chiqish, axborot ustunligiga ega bo'lish va yuqori texnologik sohalarda raqobatbardosh bo'lish imkonini beradi.

Yakuniy xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, chet tillarini o'rganish shunchaki muloqot ehtiyoji emas, balki insonning intellektual, jismoniy va iqtisodiy salohiyatini maksimal darajada yuzaga chiqaruvchi kompleks jarayondir. Zamonaviy ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish metodikasini yanada takomillashtirish va bu jarayonga umrbod davom etadigan intellektual investitsiya sifatida qarash jamiyatning umumiy intellektual salomatligi va iqtisodiy farovonligini ta'minlashning eng qisqa yo'lidir.

"Til bilgan – el bilar" degan xalq hikmati bugungi global integratsiya davrida o'zining ilmiy va amaliy isbotini to'liq topib, har bir shaxs uchun hayotiy muvaffaqiyat formulasiga aylangan.

References

- [1] Government of Uzbekistan, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-sonli qarori: Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish to'g'risida," Tashkent, Uzbekistan, 2021.
- [2] J. J. Jalolov, *Chet tili o'qitish metodikasi*. Toshkent, Ўзбекистон: O'qituvchi, 2012.
- [3] E. Bialystok, "Resilience of the Bilingual Mind," *Trends in Cognitive Sciences*, vol. 15, no. 11, pp. 489–490, 2011.
- [4] D. Crystal, *English as a Global Language*, 2nd ed. Cambridge, U.K.: Cambridge University Press, 2012.
- [5] F. I. Craik and M. Freedman, "Delaying the Onset of Alzheimer Disease: Bilingualism as a Form of Cognitive Reserve," *Neurology*, vol. 75, no. 19, pp. 1726–1729, 2010.
- [6] World Economic Forum, *The Future of Jobs Report*. Geneva, Switzerland: World Economic Forum, 2023.
- [7] H. D. Brown, *Principles of Language Learning and Teaching*, 6th ed. White Plains, NY, USA: Pearson Education, 2014.
- [8] J. Harmer, *The Practice of English Language Teaching*, 5th ed. London, U.K.: Pearson Longman, 2015.
- [9] S. Krashen, *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Oxford, U.K.: Pergamon Press, 1982.
- [10] V. Cook, *Second Language Learning and Language Teaching*, 5th ed. London, U.K.: Routledge, 2016.
- [11] R. Ellis, *The Study of Second Language Acquisition*, 2nd ed. Oxford, U.K.: Oxford University Press, 2008.



Kielce 2026

- [12] B. Cummins, “Bilingualism and Cognitive Functioning,” in *The Handbook of Bilingualism and Multilingualism*. Oxford, U.K.: Wiley-Blackwell, 2013, pp. 434–459.
- [13] P. Lightbown and N. Spada, *How Languages Are Learned*, 4th ed. Oxford, U.K.: Oxford University Press, 2013.
- [14] UNESCO, *Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education*. Paris, France: UNESCO Publishing, 2023.
- [15] T. Hedge, *Teaching and Learning in the Language Classroom*. Oxford, U.K.: Oxford University Press, 2000

